

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

INNOVATSION TADBIRKORLIKNING STRATEGIK YO`NALISHLARI

Raximov Shuxratdjon Shukurullayevich

Kattaqo `rg `on tuman 3 - son kasb hunar maktabi, o`qituvchi, Samarqand vil..

s01993289@gmail.com

STRATEGIC DIRECTIONS OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP

Rakhimov Shukhratdjon Shukurullayevich

Kattakorgan district 3 - number vocational school, teacher, Samarkand

**СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

Рахимов Шухратджон Шукуруллаевич

*Камтакорганский район 3-номер профессионального училища, преподаватель, г.
Самарканد*

Innovatsion tadbirkorlik zamonaviy biznes makonidagi taraqqiyot mayoqidir. Tadbirkorlikning ushbu shakli nafaqat yangi mahsulotlar yoki xizmatlarni yaratish bilan bog'liq, balki u biznesni barqaror o'sishga, bozorga bo'lgan talabga va jamiyatga ta'siriga olib boradigan strategik qarashni o'z ichiga oladi. Innovatsion tadbirkorlikning strategik yo'nalishlarini tushunish va ularga e'tibor qaratish uning salohiyatini to'liq ohib berish va foyda olishning kalitidir.

Innovatsion tadbirkorlikning strategik yo'nalishlari bir nechta tadqiqotlarda tadqiq qilingan. M.Albhurat biznesning strategik yo'nalishlari bilan bog'liq barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari, yo'llari va natijalarini belgilaydi.[1] Ch.Tseng korporativ tadbirkorlikning ichki innovatsiyalar samaradorligini oshirishdagi rolini ta'kidlaydi, bunda shaxslarni rag'batlantirish, korxonalarni jamlash va tadbirkorlarni mukofotlashga e'tibor qaratiladi. [2] M.Xitt [3] va R.Irland [4] tadbirkorlik va strategik fikrlashning integratsiyasini muhokama qiladilar. M.Xitt [5] buni tashkilotlarning turli sohalarida o'rganadi va R.Irland [6] hozirgi imtiyozlardan foydalanish va kelajakdagi imkoniyatlarni o'rganish o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi. Birgalikda ushbu tadqiqotlar strategik tadbirkorlikning innovatsiyalarni rag'batlantirish va raqobatbardosh ustunliklarni yaratish muhimligini ta'kidlaydi.

Tadbirkorlik faoliyatining eng muhim vazifalaridan biri, bu individual tarzda xo'jalik yuritishning samarali faoliyatini ta'minlashdan iborat. Tadbirkor xo'jalik faoliyati sohalarini mustaqil tanlash huquqiga ega. Tadbirkor o'zining aqliy, malakaviy imkoniyatidan kelib chiqib, faoliyat yuritadigan sohasini tanlab oladi. Sohaning ichki xususiyatlari, potentsiali, resurslar darajasi, soha maxsulotlariga bo'lgan bozor talabi, sohadagi investitsiyaviy sarflar, sohadagi raqobatchilar va boshqa ma'lumotlar chuqur o'rganib chiqilib, tadbirkor

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

imkoniyatlariga mos keladigan sohada faoliyat yuritishni boshlaydi. Bu tadbirkorlik faoliyatidagi dastlabgi individual faoliyatdir.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibi, birlamchi unsuri hisoblanadi. Tadbirkor bozor bilan doimiy aloqadorlikda, uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritadi. Bozordan tashqarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish mumkin bo'lmaydi. Salmoqli bozor mavqeiga ega bo'lish tadbirkor uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, tadbirkor tomonidan bozorni har tomonlama chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Tadbirkor o'zining individual ilmiy salohiyati, malaka va mahoratiga tayangan holda, bozorni asosli tadqiq etish bilan to'g'ri hulosalar chiqara olishi zarur. Individual izchil izlanuvchanlik, ziyraklik bozorning har bir elementini anglay olish, his eta olish, boshqalar etiboridan chetda qolgan jihatlarini ko'ra olish tadbirkorning bozorda o'z o'rniiga ega bo'lishida asosiy omil hisoblanadi. Bozorda ijtimoiy talab amal qiladi. Tadbirkor maxsulotining bozorda sotilishi, maxsulotning individual qiymati va iste'mol qiymatining bozor talabiga muvofiqligi, yoki boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy talab tomonidan e'tirof etilishini anglatadi.

Mahsulotdagi individual qiymat va iste'mol qiymatini ijtimoiy qiymatga aylantira olishda tadbirkorning individuallik iqtidori namoyon bo'ladi. Bu jarayon tadbirkor faoliyatidagi eng murakkab va hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy qiymat – bu, jamiyat talablariga mos kelgan, aholi tomonidan e'tirof etilgan qiymat hisoblanadi. Tovarning qiymati va uning iste'mol qiymati ushbu talablarga javob bera olsa, bozorda ayrboshlanadi. Aksincha, tovar tarkibida ijtimoiy qiymat va iste'mol qiymat mavjud bo'lmasa u sotilmay qoladi. Bunday natijaga erishish tadbirkordan izlanuvchanlik, fidoiylik, bilim va boshqa insoniylik fazilatlarni talab etadi.

Xo'jalik yuritishda yuqori samaradorlik va unumidorlikka erishish tadbirkorning faol individuallik qobiliyatlarining samarasи hisoblanadi. Bu esa qulay sharoitlarni yaratilishi, bozor konyunkturasi yangiliklariga ega bo'lish, hamda xilma-xil manbalarda qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun resurslardan samarali foydalanishni ko'zlaydi. Samarali xo'jalik yuritishda tadbirkor zamonaviy menejer vazifasini bajarishi zarur. Korxonada iliq jamoaviy muhitni yarata olish, xar bir xodimning fidoiylik, jonkuyarlik, masuliyatlilik jihatlarini yuzaga chiqara olish tadbirkorning individuallik qibiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Xodimlarni ishga qabul qilishni tanlov asosida amalga oshirish, mexnat intizomiga amal qilinishi buyicha nazorat olib borish va ularni faoliyatlarini natijalariga ko'ra rag'batlantirib borish ahamiyatlidir. Xodimlarni zamonaviy talablar darajasida malakasini oshirib borish zarur bo'ladi. Ularning dam olishlari va hordiq chiqarishlarini to'g'ri tashkil etish ish unumini oshirishga xizmat qiladi. Tadbirkorning individual tashabbuskorligi va korxona xodimlarining samarali faoliyatlarini natijasida korxona daromadlarining oshib borishi jamoada sog'lom muhitni shakllantiradi. Jamoa a'zolari korxonaning ijobiy natijalaridan manfaatdorligi bois, kasbiga fidoiylik hissining ortib borishi tadbirkorlikda korporativ ya'ni jamoaviy ish yuritish mexanizmi yuzaga keladi. Korxonada ish kuchi qo'nimsizligi koeffitsenti pasayib boradi.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Foyda olishning bosh me’zoni samaradorlik bo’lganligi uchun u tadbirkor uchun oliy darajadagi ko’rsatgich hisoblanadi. Moliyaviy resurslar samaradorligi aylanma kapitalning o’suvchanligini izohlagan holda, foyda normasi ko’rsatgichini ifodalaydi. Bu ko’rsatgich avanslangan capital hiobiga olingan sof foydaning jami xarajatlarga nisbatan foizlarda ifodalangan ko’rsatgichidir. Foyda normasi korxonaning samaradorlik ko’rsatgichi bo’lib, to’laqonli ravishda xo’jalik yuritishning foydalilik darajasini ifodalaydi. Samaradorlik ko’rsatgichi tadbirkorning individual xo’jalik yuritish qobiliyatiga berilgan bahodir.

Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ham tadbirkorning individual mahoratiga bog’liq. Shunday ichki muhitni yaratish lozim bo’ladiki, ish kuchi o’ziga qilingan sarflarga nisbatan ortiqcha qiymat yarata olsin. Xo’jalikni samarali yuritishda ish kuchining o’rnini yuqori bo’lib, tadbirkorning insonparvarligi, adolatliligi asosida korxonada sog’lom jamoaviy muhit shakllantiriladi. Adolatli boshqaruv ishchilarda o’z mehnatidan manfaatdorlik hissini uyg’otadi va kasbiga fidoiyligi, jonkuyarligi oshib boradi. Bu esa, tadbirkor tomonidan mehnat resursidan samarali foydalanish mexanizmini yaratadi.

Tadbirkor barcha mas’uliyatni o’z zimmasiga olib, mustaqil individual faoliyat yuritadi. Tadbirkorlik xavf – xatarga to’la faoliyatdir. Tadbirkor hohishidan qat’iy nazar u bozorda raqobat kurashiga tortiladi. Raqobat kurashida ustunlikka ega bo’lish tadbirkor faoliyatining sharti hisoblanadi. Barcha mas’uliyatni o’z zimmasiga olgan holda, tadbirkor hayot-mamot kurashiga kirishadi. Bu kurashda mag’lub bo’lish ko’pgina yuqotishlar va oqibatda inqiroz xavf solganligi bois, kurashda ustunlikka ega bo’lishda barcha mexanizmlardan foydalaniladi. Shunday mexanizmlardan biri marketing faoliyati samaradorligidir. Marketingdan tovarlarni sotishda foydalaniladi. Marketing bozorni chuqur tadqiq qilish bilan korxona tovariga bo’lgan talab darajasi, raqobatchilar, ularning ihlab chiqarish imkoniyatlari, o’rnbosar tovarlar taklifi kabilarni o’rganish orqali, korxona uchun zarur ma’lumotlar olishga xizmat qiladi. Marketing ma’lumotlari asosida tovarning iste’mol qiymatida o’zgarihlар kiritish orqali unga bo’lgan talabni ijobjiy tomonga o’zgarishiga olib kelishi, Raqobat kurashida ustunlikka erishishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda tovarlar realizatsiyasi asosiy muammo bo’lganligidan, bilimli marketing faoliyatiga bo’lgan talab yuqoridir. Tadbirkorning bor mahorati, iqtidori ushbu kurashda namoyon bo’ladi. Bozor raqobat kurashining maydoni bo’lib, bunda adolatli kurash boradi.

Sohibqiron Amir Temur hazratlari o’z tuzuklarida: "Tajribamda ko’rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir", deb yozgan edilar.[7] Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan asosiy siyosatning bosh maqsadlaridan biri kishilardagi boqimandalik kayfiyatini yuqotishdan iboratdir. Faqatgina individual faollik tadbirkorlikda muvaffaqiyatlar garovi hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi "...islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta’minlashdir". [8] Shunday ekan, kichik va xususiy

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish masalalari o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Tadbirkor tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xavfni o'z zimmasiga oladi, zero, tadbirkor uchun daromad olish kafolatlanmagan, sarf etilgan vaqt, harakat va qobiliyatlardan daromad olish barobarida zarar ko'rish ham mumkin. Bunday hollarda tadbirkor nafaqat o'zining o'z vaqtini, mehnati va ishbilarmonlik obro'si bilan, balki sarf etilgan mablag' bilan ham tavakkal qiladi. Shunday qilib, ijodkorlik tadbirkorlik vazifalaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida doim mavjud bo'lishi shartdir. Darhaqiqat, yangi g'oyalarni izlash va ularni tatbiq etish tadbirkorlikning eng muhim va shu bilan birga eng murakkab vazifasidir, chunki, bu holda tadbirkordan nafaqat ijodiy fikrlash va yangi echimlarni topish, balki istiqbolli fikrlash, kelajakdagi jamiyatning ehtiyojlarini ko'ra olish xususiyatini ham talab etadi.

Tadbirkor-novatorning vazifasi – ixtirolarni tatbiq etish bilan birga ishlab chiqarishni isloq qilish, yanada kengroq ma'noda yangi texnologik imkoniyatlarni qo'llash orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, yoki tayyor mahsulot bozori ochilishi, yoki yangi manbaning ochilishi evaziga eski mahsulotlarni yangi uslubda ishlab chiqarishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Albhirat, Muath Maqbool et al. "A Study on Strategic Entrepreneurship Orientations: Indicators, Differential Pathways, and Multiple Business Sustainability Outcomes." International Journal of Sustainable Development and Planning (2023): n. pag.
2. Tseng, C., & Tseng, C. (2019). Corporate entrepreneurship as a strategic approach for internal innovation performance. Asia Pacific Journal of Innovation and Entrepreneurship.
3. Hitt, M.A., Ireland, R.D., Camp, S.M., & Sexton, D.L. (2001). Strategic entrepreneurship: entrepreneurial strategies for wealth creation. Southern Medical Journal, 22, 479-491. <https://doi.org/10.1002/SMJ.196>
4. Ireland, R.D., & Webb, J.W. (2007). Strategic entrepreneurship: Creating competitive advantage through streams of innovation. Business Horizons, 50, 49-59.
5. Hitt, M.A., Ireland, R.D., Camp, S.M., & Sexton, D.L. (2001). Strategic entrepreneurship: entrepreneurial strategies for wealth creation. Southern Medical Journal, 22, 479-491.
6. Ireland, R.D., & Webb, J.W. (2007). Strategic entrepreneurship: Creating competitive advantage through streams of innovation. Business Horizons, 50, 49-59.
7. <https://temurtuzuklari.uz/oz>
8. <https://president.uz/oz/lists/view/187>
9. Azimov B. F., Rakhimova D. D. The role of research and innovations in the modernization of the regional economy //Conferencea. – 2022. – C. 43-47.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

10. Raximova D. ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHIYATI VA INNOVATSIYALAR RIVOJLANISHI KORSATKICHLARINI OMILLI TAHLIL QILISH //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – C. 375-385.
11. Azimov B. F. et al. Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 888-896.
12. Azimov B. F., Rakhimova D. D. The role of research and innovations in the modernization of the regional economy //Conferencea. – 2022. – C. 43-47.
13. Raximova D. ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHIYATI VA INNOVATSIYALAR RIVOJLANISHI KORSATKICHLARINI OMILLI TAHLIL QILISH //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – C. 375-385.
14. Azimov B. F. et al. Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 888-896.
15. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Modern Science and Research, 3(2), 1257-1261.
16. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIYATNING AHAMIYATI.
17. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. Modern Science and Research, 3(1), 933-938.
18. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. Science and Education, 4(7), 476-481.
19. Raximova D., Alimova R. BIZNESDA ESG TAMOYILLARINI QOLLASH-INNOVATSION IQTISODIYOTNING MUHIM YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – C. 362-365.
20. Yuldasheva saida Ne'matovna Rakimova Dilnoza Davronovna. (2023). CROWDFUNDING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: DEVELOPMENT TRENDS [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10408645>
21. Davronovna, R. D. (2024). Analysis of Factors Affecting the Efficiency of Research and Innovation Activities of Higher Education Institutions. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(1), 9-18.
22. Raximova, D. (2024). ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHIYATI VA INNOVATSIYALAR RIVOJLANISHI KORSATKICHLARINI OMILLI TAHLIL QILISH. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(1), 375-385.